

2025-yil 17-sentabr

“Qizilqum fosforit kompleksi” MChJda “Xon atlas” festivali o‘tkazildi



“Qizilqum fosforit kompleksi” MChJda milliy madaniyatni targ‘ib qilish, an‘anaviy qadriyatlarni asrab-avaylash maqsadida “Xon atlas” festivali o‘tkazildi.

Festivalda korxonada ishchi-xodimlari atlas va adras kabi milliy matolardan liboslar kiyib kelishdi. Milliy liboslarga hamohang ishtirokchilar tomonidan qadimiy laparlar, milliy o‘yinlar, guruhlar kesimidagi aytishuvlar namoyish etildi. Xotin-qizlarning festivaldagi kelinsalom va bellashuvlarda qiziqishi va jonbozligida yanada ko‘proq aks etdi.



Aytish lozimki, milliy liboslarimiz millat g'ururidir. Unda milliylikimizning asrlar osha saqlanib kelayotgan qadriyatlari, turmush tarzi, estetik didi mujassamdir.





source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/qizilqum-fosforit-kompleksi-mchjda-xon-atlas-festivali-otka>